

## PEDAGOGIK TA'LIMDA TALABALAR O'QUV-BILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

**Tursunova Munisa Mamarasul qizi**

*Osiyo Xalqaro Universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish metodikasini takomillashtirishning nazariy-metodik asoslari, zamonaviy yondashuvlar va amaliy mexanizmlar yoritilgan. Faollashtiruvchi pedagogik texnologiyalar, motivatsion omillar, o'quv jarayonini individallashtirish hamda refleksiv faoliyatni rivojlantirishning ahamiyati tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik ta'lim, o'quv-bilish faoliyati, faollashtirish, innovatsion metodlar, refleksiya, motivatsiya, pedagogik texnologiya.

### **Kirish**

Oliy ta'lim tizimida talabalar o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zamonaviy pedagogikaning eng muhim masalalaridan biridir. Bu jarayon talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash, shu bilan birga, o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga undaydi. Pedagogik ta'limda qo'llanilayotgan innovatsion metodlar va texnologiyalar ushbu jarayonning yaxshilanishida muhim o'rin tutadi.

### **Asosiy qism**

O'quv-bilish faoliyati – talabaning bilim olish, izlanish, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini takomillashtiruvchi jarayondir. Faollashgan talaba:

- Dars jarayonida faol ishtirok etadi;
- Mustaqil izlanish olib boradi;
- O'quv topshiriqlarini mas'uliyat bilan bajaradi;
- Ijodiy fikrlaydi.

Talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish quyidagi metodik yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi:

6. Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish;
7. Interfaol metodlar( "Aqliy hujum", "Klaster", "Baliq skeleti");
8. Modulli o'qitish;
9. Loyihaviy faoliyat texnologiyasi;
10. Raqamli ta'lim resurslari(videodars, simulyatorlar, onlayn platformalar).

Talabalarda ichki motivatsiyani kuchaytirish o'quv jarayonining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu uchun rag'batlantirish, individual yondashuv, maqsadga yo'naltirilgan topshiriqlar berish muhimdir.

O'quv jarayonini individuallashtirish esa talabalarning tayyorgarlik darajasini, qiziqishlari, qobiliyatlarini e'tiborga olgan holda ta'limni tashkil etish ularning faolligini sezilarli oshiradi.

Refleksiv faoliyatni rivojlantirish har bir mavzu bo'yicha talabaning o'zini baholash, o'zlashtirgan bilimlarni tahlil qilishi, kamchiliklarni aniqlashi – o'quv-bilish faoliyatining samaradorligini oshiruvchi omillardir.

Pedagogik ta'limda faollashtiruvchi metodikani takomillashtirish yuzasidan takliflar:

- Darsda interfaol o'yinlarni va amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish;
- Onlayn platformalar(Moodle, Google Classroom, EduPage) orqali doimiy mustaqil topshiriqlar berish;
- Talabalarning loyihaviy ishlarini tizimli ravishda baholash va taqdimorlar tashkil qilish;
- Ko'nikma va kompetensiyalarga asoslangan baholash mezonlarini joriy etish;
- Talabalarda refleksiv kundalik yuritish amaliyotini shakllantirish.

#### **Xulosa**

Talabalar o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish – zamonaviy ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biridir. Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, motivatsiyani kuchaytirish, individuallashtirilgan yondashuv va refleksiv faoliyatni rivojlantirish metodikasi ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Pedagogik ta'lim muassasalarida ushbu metodik yondashuvlarni takomillashtirish talabalar intellektual salohiyatining yuksalishiga zamin bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Avloniy.A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Hasanboyeva O. , To'rayeva Sh. Pedagogika . – Toshkent: Fan, 2020.
3. Yuldashev J. , Xodjayev B. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Ziyomhammadov B. O'quv jarayonida innovatsion metodlar. – Toshkent: Innovatsiya,2021.
5. Mahkamova G. Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent: Oliy ta'lim,2018.
6. Shodiyev B. Pedagogik ta'limda kompetensiyaviy yondashuv. – Samarqand,2020.
7. Dewey J. Democracy and Education. – New York,1916.
8. Bruner J. The Process of Education. – Harvard university Press,1960.
9. OECD. Active Learning and Student Engagement. – Paris,2021.